

TALQIN VA TAHLIL: QODIRIY ROMANLARIDA OTABEK, ZAYNAB, O'ZBEK OYIM OBRAZLARI TAHLILI

Yo'ldosheva Maftuna Dilmurodjon qizi

Farg'ona davlat universiteti 3-kurs talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Abdulla Qodiriy romanlari qahramonlari, jumladan, Zaynab, Kumush, O'zbek oyim va Otabek obrazlari haqida so'z boradi. Ularning voqealardagi ishtiroki tahlil qilinadi.*

Kalit so'zlar: *Moziy, eng kirlik, boshig'a, xayrliq, so'l.*

„Men to'g'rilik orqasida bosh ketsa „ih" deydigan yigit emasman... Ko'nglida shamsi g'uboroti, teskarichilik maqsadi bo'lmog'on sodda, go'l, vijdonlik yigitga bu qadar xo'rlikdan o'lim tansiqroqdir. Bir necha shaxslarning orzusicha ma'naviy o'lim bilan o'ldirildim. Endi, jismoniy o'lim menga qo'rqinch emasdir".¹ Hayot shunday tuzilgan, hayotning qonuni, mohiyati shundan iborat. Abdulla Qodiriyning bizga qoldirgan adabiy merosi esa juda ulkandir. Har bir asarida uning hayotiy haqiqatlari aks etadi. Shulardan eng mashhurlari esa uning romanlaridir.

Abdulla Qodiriyning so'zga, badiiy tilga, o'zbek adabiy tiliga e'tibori juda kuchlidir. Uning so'zida insonni o'ziga bog'lab turadigan mustahkam ma'naviy iplar, odamni o'ziga ohanrabodek tortib turgan kuch-quvvat bor. Uning romanlarida har bir qahramonning nutqini hissiyotsiz va ta'sirsiz o'qiy olmaymiz. Chunki har bir qahramonni tirik va voqealar rivojini chetdan turib emas, balki aynan uning ichida bo'lgandek his etilishi ham, ijodkorning buyuk so'z san'atkori ekanligidan dalolat beradi.

“O'tkan kunlar” shunday asar ekaniki, unda har bir insonning o'z qahramoni bor ekan. Aytaylik, keng fikrlaydigan, mushohadaga boy, katta hayotiy tajriba to'plagan, jahon sahnasida millatimizning o'rni, obro'si haqida bosh qotiradigan donishmand yoshdagi insonlar uchun bosh qahramon – Yusufbek hoji; muslima, mushtipar, itoatkor ayollar uchun bosh qahramon – Oftoboyim; chin sevgi, pok muhabbatni orzu qiladigan yoshidagilarning qahramoni – Kumush va Otabek; sevadigan, seviladigan yoshga yetib, ne-ne orzu-umidlar og'ushida turmushga chiqqani zahoti ko'z oldidagi begining sarob ekanini, jismi uzatsa qo'l yetadigan yerda turgani bilan qalbi dunyoning u chekkasi qadar uzoq ekanini bilgan alamzada kelinchaklar uchun bosh qahramon – Zaynab. Hayotdan zerikkan, sevilagan bechora Zaynab so'nggi urush-janjaldan so'ng opasi shaddod Xushro'ybibining uyiga borganda opalargagina xos bo'lgan jonkuyarlik holat ro'y beradi. Singlisining bu holga tushishiga faqat va faqat singlisini ayblab, undagi muammoni ochiq aytadi. Xushro'ybibi hech qachon Zaynabga “oilangdagilarni zaharla” deb aytmaydi. Singlisiga joni achiganidan,

ko'z yoshlarining daryo bo'lganidan kuyinib "Sening o'ringda bo'lganimda bilasanmi nima qilar edim, Zaynab, dunyosini ost-ust qilar edim, bir tomchi yoshimni yuz tomchi zahar bilan qo'shib tashlar edim",- deya gapiradi. Xushro'ybibi o'zicha o'ylagan to'g'ri yo'lni Zaynabga ko'rsatadi, ya'ni erdan chiqishni maslahat beradi. Ammo Zaynabning chin oshiq bo'lganidan bexabar opa agar Kumushning tinchini buzaversang seni taloq qiladi deya uning yuragiga yana yog' sepadi. Zaynab chin oshiq ersa-da, yorini o'zgasi bilan baxtli ko'rishga chidolmaydi. U shunchalar Kumush o'rnida bo'lishni xohlaganidan o'zining ismini-da unutadi. Otabek tomonidan Kumushga tuhfa etilgan muhabbatga erishmoq istagi Zaynabni faqatgina Kumushning o'limi bilangina amalga oshishiga ishontiradi. Kumushni zaharlagandan so'nggina bu qarori xato ekanligini tushunib yetdi. U faqatgina Kumushni zaharlamadi, balki o'zining keyingi hayotini ham zaharladi. Kumush vafotidan keyin uning aqlan ozishi qilgan ishiga pushaymonligidan bo'lsa ajab emas.

„Habibullo Qodiriy:

Dadamning:

– O'zbek oyim – bu Josiyat bibing, Oftob oyim xonim bibing, Kumush esa – Oykumush opang, – deb kulganlarini xotirlayman.

Garchi Qodiriy bu so'zlarni kulib aytgan bo'lsalar ham o'ylab turib, bunga ishongingiz keladi. Chunki Qodiriy ishora qilgan shaxslar nazarimda xuddi roman qahramonlariga o'xshar edi.

Josiyat bibim – dumbul, tabiatli, gapdon, bir uy xotinni o'z og'ziga qaratib o'tiruvchi, uncha-munchani pisand qilmovchi, omi bo'lsa ham donolikda hatto dadamdan o'zini yuqori tutuvchi, qiziq fe'lli ayol edi. Bibim hamma to'ylarga ham "kavshim ko'chada qolgan emas", deb boravermas, borsalar ham to'y albatta u kishining rayiga qarab jo'nashtirilar edi. Bibim bug'doyrang, quralayko'z, cho'ziqqa moyil kelishgan yuzli, baland, mutanosib qomatli edilar. U kishi, to'y, mehmonlarga borsalar, qorami, mo'kmi dakana ustidan, doka ro'mol o'rar, ko'zlariga surma qo'yar, egnilariga xonatlas ko'ylak, ustidan mursak, oyoqqa amirkon mahsi kavush kiyar edilar. Movzin qomatlariga bu kiyimlar shunday yarashib tushardiki, chindan O'zbek oyimga aylanar edilar...

Xonim bibim – oyimning onasi, o'rta bo'y, chiroyli oq yuzli, yumshoqtabiat, mayin so'zli, mulohazali ayol edilar. Ular ba'zan biznikiga mehmon bo'lib kelsalar, uyimiz go'yo to'lib ketganday bo'lardi. Dadam bibini juda hurmat qilar, "oyi" deb atar edilar.

Oykumush opam – qo'ng'iroqdek tovushli, aql-idrok, husnda haqiqatdan Kumushni eslatuvchi edi."2

Otabek- mulohazakor, bilimi va dunyoqarashi kengligi bilan ko'plab yoshi katta insonlarni ham hayron qoldiradigan yosh o'stirish yigit va ziyoli oilaning yolg'iz o'g'li. Asar davomida u zakiy va teran fikrlaydigan fidokor oshiq sifatida tasvirlanganligi bilan o'quvchini o'ziga rom qiladi. Lekin muallif uni ham aybsiz

qilib tasvirlamaydi: Otabek ham odam bolasi; sevgisi yo'lida qotillikdan ham qaytmaydi yoki qaysarlik qilib ota-onasining boshqa qizga uylantirishlariga qarshi bormaydi. Bu tomonlardan ba'zi o'quvchilarning tanqidiga sabab bo'ladi. Ilg'or fikrlarni olg'a suruvchi Otabek obrazi romanning g'oyaviy va kompozitsion markazi hisoblanadi. U savdodagi eskirgan iqtisodiy munosabatlarga qarshi chiqib, oila va turmush muammolariga yangi qarashga amal qiladi. Adabiyotshunoslar Abdulla Qodiriy o'z qahramoni nomidan o'zining shaxsiy o'y-fikrlarini so'zlagan, deb bilishadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. 1926-yil iyundagi suddagi nutqidan
2. <http://davronbek.ziyouz.com/?p=45>. «O'tkan kunlar» haqida ba'zi haqiqatlar
2. Gulnoza Rayhonova. „ABDULLA QODIRIY ROMANLARIDA TARIXIY SHAXSLARNING O'ZIGA XOS O'RNI VA AHAMIYATI". Academic Research in Educational Sciences
3. Habibulla Qodiriy. Otamdan xotira (Otam haqida). Abdulla Qodiriy asarlari to'plami, „Adibni xotirlab“ qismi (5-kitob). Info Capital Group, Toshkent, 2017. 172–173-betlar
4. Abdulla Qodiriy. „O'tkan kunlar“ ham o'tkan kunlar" tanqidi ustida ba'zi izohlar. Sharq haqiqati, 1929-yil, 218-son
5. Habibulla Qodiriy. Otamdan xotira (Otam haqida). Abdulla Qodiriy asarlari to'plami, „Adibni xotirlab“ qismi (5-kitob). Info Capital Group, Toshkent, 2017. 181–182-betlar